



2

2024

fevral

ISSN 2091-554-3

VETERINARIYA MEDITSINASI



TIBBIYOT INSONNI,
VETERINARIYA INSONIYATNI ASRAYDI!

– Бир гуруҳ олимлар Деҳқонобод қирларига чиқиб табиат қўйнида мустақил тадқиқотчи Шухрат Эшматовнинг 30 бошдан ортиқ эчкиларни 3 гуруҳга ажратиб мониезизозга қарши турли дориларни қўллаганига гувоҳ бўлдик. Тадқиқотчи барчасини тўғри бажарди. Яна бир эътиборли жиҳат шундаки, тадқиқотлар фақат шу ерда эмас, балки Қашқадарёнинг учта туманида олиб борилмоқда. Уйлайманки, изланишлар натижаси – илмий хулоса эчкичиликни янада ривожлантиришга хизмат қилади. Биз эса келгусида бундай илмий сафарларни янада кўпайтиришни, янгидан янги илмий мавзуларда, амалиёт билан уйғунликда тадқиқотлар олиб боришни ният қилдик, – дейди Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети ректори, биология фанлари доктори, профессор Худойназар Бекназарович Юнусов.



Тахририят кенгаши:

Х.Б.Юнусов – СамДВМЧБУ ректори,
профессор (раис)
Ж.А.Азимов – ЎзР ФА академиги (аъзо)
Б.Т.Норқобилов – Ветеринария ва чорвачиликни
ривожлантириш қўмитаси
раиси (аъзо)
А.И.Ятусевич – РФА академиги (аъзо)
Е.Д.Джавадов – РФА академиги (аъзо)
Ю.А.Юлдашибаев – РФА академиги (аъзо)
Д.А.Девришов – РФА мухбир аъзоси (аъзо)
С.В.Шабунин – РФА академиги (аъзо)
К.В.Племишов – РФА мухбир аъзоси (аъзо)
С.В.Позябин – профессор (аъзо)
Ш.А.Джабборов – профессор (аъзо)

Тахрир хайъати:

Ҳ.Салимов – профессор
Қ.Норбоев – профессор
А.Даминов – профессор
Р.Б.Давлатов – профессор
Б.Бакиров – профессор
Б.М.Эшбуриев – профессор
Н.Б.Дилмуродов – профессор
Ф.Акрамова – б.ф.д., профессор
Б.А.Элмуродов – профессор
А.Г.Ғафуров – профессор
Н.Э.Юлдашев – профессор
Х.Б.Ниёзов – профессор
Ю.Салимов – профессор
Б.Д.Нарзиёв – профессор
Р.Ф.Рўзиқулов – профессор
А.А.Белко – ВДВМА доценти
Д.И.Федотов – ВДВМА доценти
Х.К.Базаров – доцент
Б.А.Қулиев – доцент
Ф.Б.Ибрагимов – доцент
З.Ж.Шопулатова – доцент
Н.Б.Рўзиқулов – доцент
Д.Д.Алиев – доцент
Ш.Х.Қурбонов – доцент
Ж.Б.Юлчиев – доцент
О.Э.Ачилов – доцент

Бош мухаррир вазифасини бажарувчи:
Абдунаби АЛИҚУЛОВ

Мухаррир:

Дилшод Юлдашев

Дизайнер:

Хусан САФАРАЛИЕВ

Лойиҳа ташаббускори ва раҳбари:

Ветеринария ва чорвачиликни
ривожлантириш қўмитаси

Муассислар:

Ветеринария ва чорвачиликни
ривожлантириш қўмитаси,
“AGROZOOVETSERVIS”
масъулияти чекланган жамияти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 2018 йил
2 февралда 0284-рақам билан рўйхатга олинган

Журнал 2007 йил сентябрдан чоп этилмоқда

Манзил: 100070, Тошкент шаҳри, Усмон Носир, 22.

Тахририят манзили: 100022, Тошкент шаҳри,

Қушбеги кўчаси, 22-уй

Тел.: 99 307-01-68,

Фақат телеграмм учун ☎ 97 770-22-35.

E-mail: zooveterinariya@mail.ru

www.Vetmed.uz

Адади 3550. Нашр индекси: 1162

Босишга рухсат этилди: 26.02.2024.

Бичими 60x84¹/₈. Офсет усулида чоп

этилди. 4,25 б.т. Буюртма №6.

Баҳоси келишилган нархда.

© Veterinariya meditsinasi, #02 (195) 2024 “PRINT-

MAKON” МЧЖ

босмахонасида чоп этилди.

Чилонзор тумани, 25-мавзе,

47-уй, 45-хонадон.

Бугуннинг гапи

К.Кариев – Коррупцияга қарши курашиш –
давр талаби 3

Фидойилар

А.Алиқулов – Билимдонлик – ҳурмату даромад демак.... 6

Юқумли касалликлар

Х.Б.Юнусов, З.Ж.Шапулатова, Р.Н.Эшқувватов,
У.Х. Рузиқулова – Влияние ветеринарного биопрепарата
«Энтероавиглоб-1» и «Энтероавиглоб-2» на
гематологические показатели телят, больных
вирусно-бактериальными пневмоэнтеритами..... 10
Е.Маматмуродов, З.В.Маматова – Parrandalarda gamboro
kasalligini profilaktika qilish chora-tadbirlari..... 13

Юқумсиз касалликлар

С.В.Семенова, В.И.Семёнова, Н.Б.Рузиқулов,
Е.А.Химич – Особенности течения неонатального
периода у собак и кошек..... 17
S.B.Eshburiyev, U.T.Qarshiyev Y.A.Abdujabborov –
Quyondlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining
profilaktikasi 23

Акушерлик ва гинекология

И.А.Собиров – Влияние активного моциона на
воспроизводительную функцию коров и телок 27

Зоогигиена

О.Э.Неъматуллаев – Влияние суспензии хлореллы
на морфологические и биохимические показатели
крови кур..... 29
А.Қурбонов, С.Мавланов – Ҳовуз балиқчилик
хўжаликларида баҳор фаслида амалга ошириладиган
ишлар..... 32
Sh.Q.Baliyev, T.Q.Gaznaqulov, N.A.Sulaymanova,
Z.R.Botirova – Asalarilarni qishlovidagi muhim chora-
tadbirlari 34

УЎК: 619:638.1

Shavkat Quchqarovich Baliyev, v.f.f.d., k.i.x., laboratoriya mudiri,
Tojimurol Qilichevich Gaznaqulov, v.f.n., k.i.x.,
Nafisa Abdimuminova Sulaymanova, kichik ilmiy xodim,
Zamira Radjaboyevna Botirova, stajor tadqiqotchi,
Veterinariya ilmiy- tadqiqot instituti

ASALARILAR QISHLOVIDA MUHIM CHORA-TADBIRLAR

Аннотация

В данной статье в зимние месяцы содержание пчел в пчелиных хозяйствах, правильное их кормление, выполнение различных зооигиенических требований перед зимовкой и, как следствие, мероприятия по профилактике заболеваний, внутренняя температура ульев, количество рамок в улье, описаны методы защиты пчел от вредителей. В частности, семья пчел, хорошо освободившаяся от зимы, весной будет быстро развиваться и сможет собрать много меда, когда начнется сезон медосбора. Пчелиная семья, плохо выжившая из семьи, ослабевает, гибель пчел высока, внутренние стенки ульев и их рамки покрываются плесенью, иногда в них погибают пчелиные матери.

Abstract

In this article, during the winter months, keeping bees in bee farms, feeding them properly, fulfilling various zoohygenic requirements before wintering and, as a result, measures to prevent diseases, the internal temperature of beehives, the number of frames in the hive, methods of protecting bees from pests are described. In particular, a colony of bees that have been well released from the winter will develop rapidly in the spring and can collect a lot of honey when the honey collection season begins. The bee family that has survived badly from the colony weakens, the death of bees is high, the inner walls of the hives and their frames become moldy, sometimes the mother bees die in them.

Kalit so'zlar: asalari, ona asalari, asalarilar oilasi, uya, ramka, kaloniya, qishlov, nam, mog'or, zaif va tokchalar.

Kirish. Ma'lumki, asalari tom ma'noda mo'jiza, asalari oilalarini parvarishlash orqali asal, mum, gulchangi va boshqa shifobaxshlikda tengi yo'q mahsulotlarni yetishtirish aholi salomatligini saqlashda muhim hisoblansa, asalarilarning qishloq xo'jaligi ekinlarini changlatishdagi beqiyos xizmatini boshqa birorta jonivor bajara olmaydi. Asalarilarning guldan-gulga qo'nishi, shu orqali changlatish jarayonining amalga oshishi hosildorlikning ko'tarishirishiga xizmat qiladi va bu bois dunyoning ko'plab mamlakatlari changlatish xizmati uchun asalarichiga qo'shimcha pul to'lanadi. Ahamiyatli jihati shundaki, so'nggi yillarda mamlakatimizda asalarichilikni rivojlantirish va ko'paytirishga katta e'tibor berilmoqda. Respublikada asalarichilik tarmog'ini zamonaviy ilmiy yondashuvlar

asosida rivojlantirish, asalarichilik faoliyatini samarali tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi "Asalarichilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 239-qarori muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Asalarichilik ko'p ming yillik tarixga ega bo'lib, o'sha davrlarda ular daraxtlarda hamda tog'larning kovaklarida yashagan. Hozirgi kunda asalarilar maxsus uyalarda boqilib, ular yetti xazinaning biri bo'lib, hisoblanib kelinmoqda. Ko'pchilik hasharotlar orasida asalarilar muvaffaqiyatli qishlab chiqadi, ular oila bo'lib yashash evaziga oilada yashash uchun yetarli haroratni ta'minlaydi[2,5].

Adabiyotlar sharhi. Har bir asalarichining eng muhim vazifasi asalarilarni yaxshi qishlov bilan ta'minlashdir. Bu asalari oilalarining bahorda muvaffaqiyatli rivojlanishi va keyingi mavsumda yuqori mahsuldor bo'lishining asosiy shartlaridan biridir. Odatda qishlaydigan asalari oilasi kasallikka chalinmasa, muammolarga duch kelmasa bahorda tez rivojlanadi va asal yig'ish mavsumida mahsuldorligi yuqori bo'ladi. Qishlovdan yomon chiqib omon qolgan asalari zaiflashadi va asalari o'limi ko'p bo'ladi, uylarning ichki devorlari va ularning ramkalari nam tortib, mog'orlanadi. Ba'zan ularda ona asalarilar nobud bo'ladi. Asalarilarning muvaffaqiyatli qishlashi uchun koloniyalar qishga kuchli, yosh, unumdor ona asalarilar va kuzda ko'p miqdorda asalari-



1-rasm. Qish faslida asalari uylarining ko'rinishi.



2-rasm. Asalarichilik xo'jaligiga xizmat safaridan lavhalar.

lar yetishtirishlari, shuningdek, 25-30 kg dan yuqori sifatli oziq-ovqat zaxiralariga ega bo'lishlari kerak[6,9].

Asalarilar qishki ayozli kunlar boshlangan zahoti sovuqdan himoyalangan joylarga olib kelinadi. Odatda yurtimizning tog' va tog'oldi hamda cho'l hududlarida erta bahor issiqroq bo'ladi va oilalar kech uchishlarni amalga oshiradi. Shunday iqlim sharoitida ishlash juda foydali, chunki havoning bunday bo'lishi asalarilar ichaklarini qishlovning sovuq davrida to'plangan najasdan tozalashga imkon beradi[1,4].

Qish mavsumida uyalarini o'z holiga tashlab qo'yish yaaramaydi. Asalari oilasidagi holatni qishning iliq kunlarida diqqat bilan ko'zdan kechirish lozim. Uyalarini tozalash uchun quruq kunni tanlaymiz. Kuchli oilalari bo'lgan uyalarini pastki tokchalarga, zaiflarini esa tepaga va yon tomonlariga joylashtiramiz. Uyaning yuqori qismini qamish to'shaklar bilan yopsa ham bo'ladi. Qishning birinchi yarmida oilaning kuchiga qarab faqat pastki kirish joylarini 5-10 sm ga ochamiz. Sovuqdan himoyalangan joylarga namlik va haroratni o'lchaydigan asboblari o'rnatiladi. Harorat me'yordan oshmasligi, havoning nisbiy namligi 80-85 foizni tashkil qilishi kerak. Turli zararkunandalar, sichqonlaru kalamushlar asalari oilasi qishlayotgan qutilarga yaqin kelmasligi uchun zarur choralarni ko'rish lozim. Bunga eng muhim masala sifatida qarash kerak[3,5].

Qishda asalarilar usti berkitilgan mumkatak inchalardagi asalning ustini ochib oziqlanadi. Inchaning usti ochilgach, undagi isitilgan asal havodagi namlikni tezda o'ziga tortib oladi va arilar iste'mol qilishi uchun tayyor bo'ladi. Qishning dastlabki birinchi yarmida ari oilasi kam oziqlanadi — o'rta hisobda bir oila kuniga 20-25 gr yoki bir oyda 600-700 gr ozuqa iste'mol qiladi. Qurtchalar paydo bo'lishi bilan ari oilasining

oziq iste'moli oyiga 1,0-1,2 kg gacha ko'payadi, qish oxirlariga borib, ikki karra ortadi. Arilarning qishda oziqlanishi tashqi muhit haroratiga, uya qayerda joylashganligiga bog'liq. Arilar nafaqat erta bahorda, balki ko'klamda ilk bor tashqariga uchib chiqqanlaridagina orqa ichaklarini bo'shatadi. Bunday xususiyat faqat asalarilarga xosdir. Arilarning tanasida asal mukammal surilishiga qaramay, undan 1,8 foizi chiqindi sifatida orqa ichakda to'planadi. Har bir asalarining orqa ichagida butun qish davomida ko'pi bilan 40 mg gacha axlat to'planishi mumkin. Orqa ichagidagi axlat og'irligi 40 mg dan oshsa, arilarning ichi ketishi yoki bezovtalaniishi kuzatiladi. Orqa ichak devorlarida joylashgan rektal bezi ishlab chiqaradigan katalaza suyuqligi ichakda to'plangan ahlatni chirishdan saqlaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, asalarilar uchun qishlashning eng qizg'in davri qishning ikkinchi yarmi hisoblanadi hamda bu davrda asalarilar ko'proq ovqat iste'mol qiladi. Unutmaslik kerakki, ayni shu vaqtda oiladagi harorat 4 °C dan yuqori bo'lsa, jonivorlar uchun xavf tug'ildi. Haroratning ko'tarilishi va havo namligining pasayishi bilan asal o'zining yumshoqligini yo'qotadi va kristallanadi, bu asalarilar uchun no'ng'aylik tug'diradi. Tashqi havo harorati keskin o'zgarganda, asalarilar saqlanadigan joyga tezda kelishimiz va uyaning shamollatish quvurlari yordamida havo harorati va namligini tartibga solishimiz zarur. Ko'pincha, qishning oxirida shamollatish quvurlari kerakli haroratni ta'minlamaydi, bu holda biz kechasi qishki saqlanadigan joyning eshiklarini ochamiz va uyaning eshiklarini 3-5 mm ga siljitamiz[10].

Asalarilar qishning ikkinchi yarmida ko'proq e'tibor talab qilganligi sababli, qishki kuzatuvni har 5-7 kunda, qishning so'nggi kunlarida esa har kuni amalga oshirish lozim. Kuzatuv jarayonida dastlab uyalaridan kelayotgan tovushlarni tinglash kerak. Agar asalarilarning shovqini zaif va bir tekis bo'lsa, bu normal holatni ko'rsatadi, agar g'o'ng'illash barcha koloniyalarda ko'paygan bo'lsa, havo haroratini tekshirish, havoni normallashtirish lozim. Agar qishki saqlanadigan joyda (normal haroratda) shovqinning kuchayishi faqat ma'lum oilalarda kuzatilsa, ayni shu qutilarni tekshirish, nodub bo'lgan arilarni kirish joylaridan olib tashlash, ehtiyojga qarab kirish teshiklarini me'yoriga keltirish zarur. Nobud bo'lgan arilar orasida boshsiz yoki boshi kesilgan asalarilarning kuzatilishi uyada sichqonlar borligidan dalolat beradi. Sichqonchalar topilgan uyalar tokchadan ehtiyotkorlik bilan olinadi va zararkunandalar yo'qotiladi. Agar o'lgan asalarilar orasida qorinlari kattalashgan asalarilar bo'lsa va uyaning devorlarida diareya dog'lari kuzatilsa, uyadan

yoqimsiz hid taralsa, unda oiladagi sifatsiz asalni yaxshisiga almashtirish kerak. Agar g'o'ng'irlash zaif bo'lsa, quruq barglarning shovqinini eslatib tursa, bu oilaning och qolayotganidan darakdir. Bunday asalari oilasiga darhol sifatli ozuqa berish lozim. [7].

Asalari oilasida yuqumli kasalliklar bo'lgani chinakam fojeadir. Bunga aslo yo'l qo'yish kerak emas. Doimiy kuzatish asosan ana shu maqsadga qaratilmog'i, har safar uyani ko'zdan kechirganda kasallik alomatlari bormi-yo'qmi, ana shunga e'tibor qaratish lozim. Shubha tug'ilgan oiladan asalari va mumkatak ramkadan (inchalarni) 10x15 sm qirqib olinadi hamda qirqib olingan inchalardagi o'lgan qurtcha yoki arilar maxsus idishga (laboratoriya tekshiruvi uchun) solinadi. Agarda qurtchani terisi ichiga suv to'plangan, kasali bo'lsa, u holda kasallangan qurtchalarni 50% li glitsirin eritmasida konservalanadi va laboratoriyaga jo'natiladi. Shol bo'lish, gafniov kabi kasalliklar bilan kasallanganda ari oilasidan 50 dona uchuvchi arilar olinsa, shol bo'lish kasalligida oilasidan 50% li glitsirin eritmasiga 50 donadan ari solib, laboratoriyaga jo'natish lozim. Vorroatoz kasali bilan qishda o'lgan arilardan hamda uyani tagiga to'kilgan chiqindilardan 200 g. namuna olinib, tekshirishga jo'natiladi. Bahorda esa mumkatakli romkaning chetki qismidan 3x15 sm li bo'lakcha namuna sifatida qirqib olinadi va uya tagidagi ifloslardan qo'shib tekshirishga yuboriladi. Yozda va kuzda esa usti berkitilgan qurtchali inchalardan 3x15 sm li qilib qirgiladi va uya ichida ish bajaruvchi tirik yosh arilardan ham qo'shib, o'rta hisobda hamma kasallangan oilalardan 10% dan namuna ajratiladi va tashxislashga jo'natiladi. Boshqa xil kasalliklarni aniqlash uchun 50 tadan tirik arini har bitta kasallangan oiladan ajratib olishni tavsiya etamiz (tirik arilarni shisha bankaga solib, doka boylab jo'natiladi). Agar arilarning zaharlanganligiga shubha tug'lsa, u holda 400-500 dona o'lgan arilarni hamda 200 g. shu oiladan olingan ozuqadan yoki usti berkitilmagan inchalardan va 50 g. gulchangdan hamda umumiy ari oilasining 10% idan namuna tashxislash uchun ajratib olinadi. Va yana zaharlanish sababini aniqlash maqsadida tashxislashga asalarilar qatnayotgan atrofdagi sharbat ajratuvchi o'simlik gullari va bargidan ham 100-200 g. namuna olinishi kerak. Shuningdek asalarilar ozuqasida qora asal (pad) borligini aniqlash uchun 100 g. asal, zahar moddasi bor yo'qligini aniqlash uchun esa 200 g. asal ajratib (tashxislashga) olinadi. Namunalar (tirik arilar) shisha bankasiga solinib, og'zini ikki qavat doka bilan o'raladi. Inchalardagi kasallangan qurtchalarni esa faner yoki yog'och quti ichiga qog'ozga o'ralmay solinadi. Uyaning tagidan olingan ifloslarni esa qog'oz

paket ichiga solib, so'ngra fanerli qutichaga joylashtiriladi va tekshirishga jo'natiladi. Unutmang, barcha namunalar veterinariya laboratoriyasiga (tashxis markazi) vetvrachning maxsus yo'llanma xatiga ko'ra, xo'jalikning nomi, pochta manzili, asalarichining familiyasi, ismi hamda pochta indeksi, namuna olingan kun, kasalning boshlanish vaqti hamda nechta ari oilasi kasallangani ko'rsatilgan holda yuboriladi[8].

Namunalar tezda laboratoriyaga yetkazilishi va tashxislashda aniqlangan illatlar nomi yozilgan qog'oz (ekspertiza) paysalga solinmay xo'jalikka yetkazilishi, shunga muvofiq zarur choralar ko'rilishi lozim.

Xulosa shuki, kuzda asalarilarni qishlovga yaxshi tayyorlash, qishlov davrida muammolarga yo'l qo'ymaslik, doimiy kuzatuv va kasalliklarga o'z vaqtida barham berish ona arilar va ishchi arilarning ko'klamda kuchli va sog'lom bo'lishini ta'minlaydi. Bu o'z-o'zidan bahorgi asal yig'ish mavsumi kutilganidek boshlanadi deganidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Фотихов Ш.А. "Асаларичиликни ўрганамиз", Услубий қўлланма. Тошкент. "Турон икбол". 2011й.
2. Криков В.В., Болезни пчел. Современные методы лечения./Мостовой. –Ростов н/Д: «Феникс», 2003.
3. Пчеловодство:учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по специальностям 110401 – «Зоотехния» и 111201 – «Ветеринария»/ Н.И.Кривсов [и др.].-С-Пб.:Лан, 2010.
4. Козин.Р.Б., Иренкова В.И., Лебедев В.И. Практикум по пчеловодству/С-Пб., "Лан", 2005.
5. Исамухамедов А., Никадамбаев Х. Асаларичиликни ривожлантириш асослари. – Тошкент. «Sharq», 2013. – 76-82Б.
6. Муродов П., Муродов У. Асаларичилик ва саломатлик. «Алишер Навоий» нашриёти, 2010. – 15-19Б.
7. Крахотин Ф., Безверхов А.П. и др. "Механизация пчеловодства и пасечный инвентарь". Тошкент. 1992 г.
8. Сулайманова Н.А., Мейлиев С., Эшбуриев С.Б., "Asalarilarda ko'p uchraydigan kasalliklar va oldini olish", Chorvachilik hamda veterinariya sohalarida innovation texnologiyalarni joriy qilish va muammolar Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 22-24 may, 2019 йил.
9. Крахотин Н.Ф. Ўзбекистонда асаларичилик. Тошкент. 1991.
10. Давидов О.С. ва б. "Зооветеринария" журна. №11. 2014й. 31-32 б.